



Tadqiqot.uz

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



conferences.uz

No 18  
31 июль

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 18-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
14-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
18-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-14**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
18-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-14**

**ТОШКЕНТ-2020**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 18-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июль 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга багишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хукуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарииев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарииев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН**

<b>1. Xamroyeva Nigora Matyoqubovna</b>	
MOVAROUNNAHR MINIATYURA MAKTABI .....	7
<b>2. Dadaxonova Munavvar Qosimjonovna</b>	
GEOMETRIK JISMLARNI PERSPEKTIVA QOIDALARI	
ASOSIDA TASVIRLANISHI .....	8
<b>3. Donayeva Zanifa Obidovna</b>	
O'QUVCHILARNI CHIZMACHILIK DARSIGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA SINFDAN	
TASHQARI MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI.....	10
<b>4. Qosimova Dilrabo Qosimovna</b>	
TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA NATURMORT BILAN ISHLASH .....	12
<b>5. Атаканов Азамжон Турсунович</b>	
ЭВРИСТИК ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА ЭВРИСТИК ЎҚИТИШНИНГ	
ЙЎНАЛИШЛАРИ.....	13



## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

### MOVAROUNNAHR MINIATYURA MAKTABI

*Xamroyeva Nigora Matyoqubovna  
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 3-sod umumiy o'rta ta'lif maktabi  
tasviriy san'at fani o'qituvchisi Tel:974530694*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIV-XVII asrlarda Movarounnahrda rivoj topgan miniatyura san'ati istiqbollari haqida, bu san'atning yuqori darajaga ko'tarilishida o'z hissasini qo'shgan buyuk musavvirlar haqida gap boradi. Bundan maqsad o'quvchilarga yetarli darajada bilim ko'nikma berishdir.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, miniatyura, Samarqand, Hirot, Buxoro, Kamoliddin Behzod, portret, Pir Said Axmad Tabriziy, ustod Jaxongir, temuriylar, boburiylar.

Miniatyura Sharq mamlakatlarida o'ziga xos alohida yo'naliш kasb etgan, maxsus ixtisos darajasiga ko'tarilgan san'atdir. Uning tarixi uzoq o'tmishdan boshlangan bo'lsada, Sharqda bu san'at XIV-XVII asrlarda kamol topgan. Bu davrlarda O'rta Osiyo, Hindiston, Eron va Arab mamlakatlarida - "Buxoro maktabi", "Boburiylar miniatyura maktabi", "Sheroz miniatyura maktabi", "Isfahon maktabi", "Yazd maktabi", "Bag'dod maktabi" kabi yirik san'at markazlari tashkil topgan. Movarounnahr maktabi (ya'ni "Buxoro maktabi", "Samarqand maktabi") XVI-XVII asrlarda taraqqiyotning yangi bosqichlariga ko'tariladi. Bu borada turli siyosiy va ijtimoiy voqealar ta'siri natijasida "Hirot miniatyura maktabi"ning tanazzuli va musavvirlarining Hirotdan Buxoro tomon kelishlari muxim ro'l o'ynagan. Shuningdek XVI-XVII asrlar Movarounnahr tasviriy san'ati taraqqiyoti XIV-XV asrlar Movarounnahr miniatyura maktabi erishgan yutuqlarga asoslangan.

Samarqand XIV-XV asrlarda ilm-fan va san'at taraqqiyoti bilan dunyoga mashhur bo'lган shahar edi. Hirot miniatyura maktabi ana shu katta san'at va madaniyat o'chog'ining ajralmas qismi bo'lган."Sharq Rafaeli" hisoblan mish Kamoliddin Behzod boshchiligidagi kamol topgan Hirot miniatyura maktabining shakllanishi va taraqqiyoti ko'p hollarda Samarqand miniatyura maktabi ta'sirida amalga oshgan. Aniq tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Kamoliddin Behzod miniatyura san'atini Pir Said Axmad Tabriziydan o'rgangan. Pir Said Axmad Tabriziy esa "Ushdat ul-musavvirin" ("Musavvirlar peshvasi") nomi bilan mashhur Buxorolik ustod Jaxongirning shogirdi bo'lган. Ustod Jaxongir esa Temuriylar davri tasviriy san'atining asoschisi bo'lган ustod Gung (Soqov) dan tahsil olgan.

Behzod rahnomalik qilgan Hirot miniatyura maktabi namayondalari eng nozik, o'ta nafis asarlarida realistik tushunchalarni tom ma'noda ifoda etgan. Buxoro miniatyura maktabi asarlarida asosan tabiat manzaralari ishlangan. XV-XVII asrlarda O'rta Osiyo tasviriy san'ati maktablarida portret janri va tarixiy voqealar bayoni miniatyuralarning izchil hamda uzviy mavzuga aylanib borganligi kuzatiladi. Bunga misol qilib, Ma'sud Ibn Usmoniy Ko'xistoniyning "Abulxayrixon tarixi" asari sahifalariga ishlangan miniatyuralarni, "Chingizzxonning Sirdaryo soxasida o'z o'g'llarini qabul etishi", "G'azalxon Urshonda", "Abdullahon portreti", Xotifiyning "Temurnoma" asariga ishlangan "Temurning Hindistonga yurishi" miniatyuralarini, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kitobiga ishlangan miniatyuralarni keltirishimiz mumkin.

Ibtidosi O'rta Osiyoda boshlangan Hirot miniatyura maktabida rivojlantirilgan portret janri Hindistonda Boburiylar hukumronlik qilgan yillarda kamolot darajasiga yetkazilgan. Muhammad Murod Samarqandiy va Muhammad Nodir Samarqandiyilar aslida Movarounnahrlik musavvirlar bo'lib, XVII asrda Hindistonda tasviriy san'atni rivojlantirishda muhim rol o'ynaganlar.

#### Foydalaniman adabiyotlar

1. Madraimov A., Normatov N. Sharq miniatyura maktablari . T.: 1989
2. Oydinov N. Tasviriy san'at tarixi. T.: 2007.
3. Muqaddima Ashrafiy Temur va Ulug'bek davri Samarqand miniatyurasi. T.: 1996.
4. Polyakova E.A., Raximova Z.I. Sharq miniatyurasi va adabiyoti T.; 1987.





## GEOMETRIK JISMLARNI PERSPEKTIVA QOIDALARI ASOSIDA TASVIRLANISHI.

Dadaxonova Munavvar Qosimjonovna  
Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani  
38-sonli DIUM tasviriy san'at fani o'qituvchisi  
Telefon +998 97 324 23 33  
alimovatakroraalimova@gmail.com


**Annotatsiya:** Tezisda geometrik jismlarni perspektiva qoidalari asosida tasvirlanishi keltirigan. Bu qonun-qoida orqali boshqa ko'plab geometrik jismlarni qulay uslubda ishslash mumkin. Geometrik jismlarni perspektiva qoidalalaridan hozirda o'quvchilarning tasviriy san'at fanida, geometrik shakl va jismlarni chiza olishi, qog'ozga osongina joylashtirishda keng foydalanib kelinmoqda.

**Kalit so'z:** Perspektiva, chiziq, natura, geometrik shakl va jismlar (kub, silindr, konus, prizma, piramida va h.k.), taxta, gips.



Chizilayotgan predmet qayerda turgan bo'lmasin, yorug' xonadami yo ochiq joydami uni o'ziga qarab rasmini tasvirlash uchun ufq chizig'iga nisbatan turish holatini aniqlab olishimiz zarur. U ufq chizig'idan balandda, pastda yoki uning o'rtaida joylashgan bo'lishi mumkin. Ufq chizig'i ko'z balandligida tasavvur qilinayotgan gorizontal sathni predmet bilan kesishishidan hosil bo'ladi. Agar biz yuqoriga ko'tarilsak yoki pastga tushsak, shunga yarasha ko'z balandligining o'zgarishida muvofiq ufq chiziqning holati ham o'zgaradi. Predmet ko'z balandligiga nisbatan balandda yoki pastda turganligiga qarab, ko'rinyotgan buyumning shakli turlicha idrok etiladi. Ufq chizig'inining yuqorisida joylashgan predmetlarning pastki tomoni, pastda turganlarining esa yuqori qismi ko'rilib turadi. Bunda gorizontal chiziqlarning perspektiv yo'naliishlari huddi bizdan bir tomoniga qarab uzoqlashayotganday ancha o'zgaradi. Rasm chizishga o'rgatish boshqa fanlar va san'at turlari kabi, bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi mashqlarni o'z ichiga oladi. Ilgarigi uncha murakkab bo'lмаган mashqlarni qunt bilan bajarmay turib, kelgusidagi ancha murakkabini tushunish qiyin bo'ladi.

Har xil predmetlar bir-biri bilan kesishuvchi yassi sathlardan tashkil topgan. Ana shunday murakkab shaklga ega bo'lgan predmetlarning qanday tuzilganligini va perspektiv qurilishini bilish uchun avvalo to'g'ri burchakli yassi narsalarning perspektiv qurilishi bilan tanishish maqsadga muvofiq.




Unchalik qalin bo'lмаган to'g'ri burchakli taxtachani olib chizuvchiga nisbatan burchak holatiga ufq chizig'i uning o'rta qismidan bir oz oz pastroqdan o'tadigan qilib vertikal holatida quyamiz.


Uning perspektiv holatini chizishni boshlar ekanmiz, predmetning nisbatlarini aniqlab olamiz. Avval ko'rinyotgan balandligini ko'rinyotgan kengligidan katta ekanligini belgilaymiz. Ana shu o'lchovlarning fikrini chizilayotgan rasmida tasvirlashimiz kerak. Buning uchun qog'oz taxtachaning yaqinidagi vertikal tomonining balandligini ixtiyoriy ravishda belgilab olamiz. Unga asoslanib predmetning kengligi balandligidan necha marta katta ekanligini topishimiz



mumkin. To'g'ri to'rtburchak nusxasini kuzatar ekanmiz, biz uning oldindagi qirrasini uzoqdagi qirrasiga nisbatan katta bo'lib ko'rinyotganligini sezamiz. Bir-biriga paralel bo'lган uzoqlashib borayotgan gorizontal qirralari esa qiyalanib ko'rindi. Uning ufq chizig'idan pastdagisi go'yo ko'tarilayotgandek, yuqorisidagi ufq chizig'iga qarab pastlab borayotgandek yo'nalganini ko'ramiz. Ularning qanchalik qiyalanib borayotganligi gorizontal chiziqqa nisbatan aniqlanadi. Topilgan burchaklarni rasmida belgilab, qiya to'g'ri chiziqlar bilan belgilaymiz. U chiziqlar davom etganda ufq chizig'ida o'zaro kesilishi kerak. Kesishish nuqtasi qog'oz sathidan ancha tashqarida bo'lishi ham mumkin. Taxtachani umumiyligi to'g'ri to'rtburchagi chizilgach uning qalinligini belgilaymiz. Xuddi ana shunday to'g'ri to'rtburchakli taxtachani gorizontal holatdugisini ufq chizig'idan pastdagi holatini ham perspektiva qoidasi bo'yicha chizishni mashq qilib ko'raylik.



Bunda avval chizilayotgan taxtachani old gorizontal qismining uzunligi va uzoqlashayotgan gorizontal sathining kengligi belgilab olinadi. Yon tomonlarining yo'nalishlarini aniqlash uchun o'tirgan joyimizda qalamni vertikal holatda tutib, «a» va «b» nuqtasiga qo'yamiz va qalam bilan taxtacha tomonlari oraligidagi burchakni belgilaymiz. Bu burchaklarni tasvirda aks ettiramiz. Taxtachaning tomonlarini davom ettirilganda ufq chizig'ida yotgan nuqtada kesishishi lozim. Uning qalinligini umumiyligi shaklni belgilash paytidayoq kengligi va uzunligiga muvofiq belgilab olishimiz mumkin. Rasmni to'g'ri chizilishi taxtachaning balandligi, kengligi va uzunligini farqi, shuningdek uzoqlashib borayotgan gorizontal tomonlarining qiyaligini bexato topilishiga bog'liq.



Gipsdan yasalgan geometrik jismlarni chizib o'rghanishning yana bir foydali tomoni shundaki, bu modellarda perspektiva qonun-qoidalalarini o'rghanish bilan birga kelajakda yanada murakkabroq naturani chizish uchun tayyorgarlik ko'rildi. Ko'p hollarda o'quvchilar geometrik modellarni chizishdan bosh tortadilar, ular gips modelni ko'p chizish jonli naturani chizishga yomon ta'sir qiladi, uni gipsga o'xshatib qo'yish mumkin, -deb hisoblaydilar. Shuning uchun o'qituvchi talabalarga gips modellarni o'rghanish asosida tirik odamni chizish mumkinligini tushuntirishi shart. Gips modellarni chizish bizning atrofimizdagi ko'p qirrali bog'liq dunyoni o'rghanish va tushunish uchun zarur. Tabiatdagi bor buyumlarga sinchkovlik bilan nazar tashlasak, ular tarkibida geometrik jismlar shakli mujassamlashganini ko'ramiz (kub, silindr, konus, prizma, piramida va h.k.).



Agar yosh rassom tasvirlanayotgan buyumlarning asosini geometrik jismlardan iborat ekanligini tushunib ish olib borsa, uning kelajakdagisi ishlari albatta muvaffaqiyatlil bo'ladi.

Haqiqatdan yosh rassom birinchi bo'lib geometrik jismlarni chizib o'rghanadi va bu ishlar murakkab shakllarni chizish bilan tugaydi. Uy-ro'zg'or buyumlarining ko'pligi (stol, stullar, shkaf, jomadon va h.k.) geometrik jismlarga yaqin shakllar guruhiga kiradi.

Gipsdan yasalgan geometrik jismlarni uy-ro'zg'or buyumlari bilan birga qo'shib ishlash yosh rassomda borliq dunyoni umumlashtirib ko'rish yoki buyumlar dunyosini oddiy geometrik jism shakliga qiyoslash his-tuyg'usini shakllantiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. Boymetov. Qalamtasvir. Musiqa nashriyoti. Toshkent. 2006.



## O'QUVCHILARNI CHIZMACHILIK DARSIGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI

*Donayeva Zanifa Obidovna  
Buxoro viloyat Kogon shahar  
3-umumi o'rta ta'lim maktab  
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi  
Telefon: +998 (91)417-08-24*

**Annotatsiya:** Maqolada maktab o'quvchilarining darslardan tashqari bo'sh vaqtlanini samarali o'tkazish, chizmachilik fanining ahamiyati va dolzarbliji, o'quvchilarni ushbu fanga qiziqtirishda sinfdan tashqari mashg'ulotlarga zarurat haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, komil inson, to`garak, guruh bilan ishlash

Maktab yosh avlod uchun nafaqat ta'lim-tarbiya o`chog'i, balki kasbga mehr va mehnatsevarlikni shakllantiradigan dastlabki bo`g'in hisoblanadi. Xalq ta'limi vazirligi mutasaddilari ham davlatimiz rahbari boshchiliklarida aynan yoshlarni kasbga yo`naltirish borasida tinmay sa'y-harakat olib bormoqdalar. O'quvchilarni kasbga qiziqtirishda texnologiya, tasviriy san'at va chizmachilik kabi fanlar muhim rol o`ynaydi.

Turli fanlar bo'yicha sinf xonalarida, ya`ni dars jarayonida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari yetarlicha o'rganiladi. Lekin chizmachilik fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va shu usul orqali kasbga yo`naltirishni shakllantirish muammosi hali to`liq o'rganib chiqilmagan sohadir. Zero, hozirgi zamon texnika taraqqiyoti, katta qurilish inshootlari, umuman xalq xo`jaligining rivojlanish texnologiyasi chizmachilik fani bilan bevosita bog`liqdir.

Kasbga yo`naltirish va qiziqtirishda umumta'lim maktablaridagi ta'lim-tarbiya ishlari muhim ahmiyat kasb etadi. Binobarin, chizmachilik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishning o`ziga xos xususiyatlari, maqsadi, vazifalari va ahmiyati mavjud. Bu o'rinda fan va madaniyatning tarixiy ildizlarini o'rgatish, ajdodlarimiz qoldirgan benazir merosni xronologik tarzda tadqiq etish beqiyos tarbiyaviy ahmiyatiga egadir.

Sinfdan tashqari o'tkaziladigan chizmachilik to`garagi mashg'ulotida o'quvchilarga chizma asboblarining tuzilishi, texnologik jihatdan ularning evolyutsion rivojlanishi, ulardan foydalanish uslubi qiyosiy aspektida tushuntiriladi.

Bu uslub, avvalambor, ajdodlarning fan sohasidagi qadriyatlariga mehr uyg`otadi, qolaversa, o'quvchilarda chizmachilik faniga va shu fanga aloqador kasblarga nisbatan qiziqish uyg`otishda muhim tarbiyaviy ahmiyat kasb etadi.

Bu muhim vazifa hozirgi shart-sharoitda xalq ta'limi tizimi, chunonchi, bolalar bog`chalari, umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlari zimmasiga yuklanishi lozim. Bunda sinf xonalarida o`qish-o`qitish ishlari, sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy faoliyat ta'lim va tarbiya ob`ekti hisolanadi.

Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlashda mamlakatimiz taraqqiyotida, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarni yo`lga qo'yish, o'quvchilarning zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahmiyatga ega.

Ayni paytda yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo`lgan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo`lish uchun, birinchi navbatda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o`zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko`tarish zarur va muhimligini hayot taqazo etmoqda.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning yutuqlari asosida yosh avlodni hayotga tarbiyalashning yangi samarali usuli va shakllarini izlash zarurdir. Ana shulardan biri darsdan va maktabdan tashqari ishlardir. Bu ishlarni samaradorligini oshirish komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy, qulay yo`nalishlarini topib joriy etishga bog`liq. Sinfdan tashqari ishlar jarayonida maxsus mashg'ulotlar o`tkazish zarur hisoblanadi.

Maktab o'quvchini o`qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o`qiy oladigan, uni tushunadigan, ma`lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o`qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o`qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko`p narsani bilishga havasni orttiradi.

Sinfdan tashqari ishlarni samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng



zamonaviy va qulay yo`nalishlarini topib joriy etishga bog`liq.

O`quvchilarni chizmachilik darsiga qiziqishini oshirishda sinfdan tashqari mashg`ulotlarning asosiy maqsad va vazifalari – o`quvchilarda chizmachilikka bo`lgan qiziqishini oshirish, ularni kasb-hunarga yo`naltirish, vatanparvar hamda komil inson bo`lib yetishishiga imkon yaratish.

Darsdan va mактабдан tashqari tarbiyaviy ishlар o`quvchilarning qiziqish, istakлari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo`sh vaqtlarida o`quv tarbiya jarayonini to`ldiradi. U o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Darsdan tashqari ishlarning o`ziga xosligi shundaki to`garak, klub dasturlarining rang – barangligi, ulardagi yangiliklar o`quvchi yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

O`zaro bilim olish muhim yo`nalish hisoblanadi. O`zaro o`rganish va bilim olishni tashkil etishni chizmachilik mag`ulotlari darsdan tashqari vaziyatlarda ham zaruriyatga aylansa o`quvchilar olgan bilimlarini har kungi odatga aylantiradi. Odатда chizmachilik mashg`ulotlari foydali va zarur degan e`тиqodga aylanadi. Bu borada san`atga iftixorlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir. Shuni esda saqlash kerakki o`quvchilarning o`zlariga maqul bo`lgan vaqtida sinfdan tashqari mashg`ulotlariga qatnashishi o`quvchilarni chizmachilikni o`rganishda yuqori pog`onalari sari qo`yilgan ilk maqsadli qadamdir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Tadjibayev S.S., O`rinboyev E.A. "Tasviriy san`at va chizmachilik fani o`qituvchilarining malakasini oshirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari" Andijon-2017
2. Ochilov Z. «Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda kasbga yo`llashni shakllantirish» T-1996-yil «O`qituvchi».



## TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA NATURMORT BILAN ISHLASH

*Qosimova Dilrabo Qosimovna  
Buxoro viloyat Kogon shahar  
1-umumi o'rta ta'lif maktab  
tasviriy san'at fani o'qituvchisi  
Telefon: +998 (94)324-50-55*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san'at darslarida naturmort bilan ishlashning o'quvchi xotirasini shakllantirishdagi ahamiyati, tabiatni tasvirlash barobarida biologiya, chizmachilik, matematika va geografiya fanlari bilan bog'liqliklar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** naturmort, natura, kartografiya, ko'z xotirasi, yorug'-soya reflekslari

*"Tasviriy san'at ko'z bilan ko'rildigan poeziya, poeziya esa tasviriy san'atdir"  
Deni Didro*

Darhaqiqat, san'at insonni go'zallikka yetaklaydi. Tasviriy san'at darslarida biz o'quvchilarni san'atni sevishga, borliqni idrok eta olishga, ranglarni ajrata bilishga bosqichma – bosqich tayyorlab boramiz. Bularning barchasi o'qituvchining o'quvchiga qanday yetkazishiga bog'liq.

Men tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni ko'proq natura bilan ishlashga undayman. Masalan: Boshlang'ich sinflarda "Mevalar" rasmini chizish mavzusida, yuqori sinflarda "Natyurmort" mavzusini chizishda o'quvchi ko'proq natura bilan ishlasa uning kuzatuvchanlik qobiliyati oshib, atrofni teran anglay boshlaydi. Ranglarni yorug'-soya reflekslarning bir-biridan farqini anglay oladi. Xuddi shu metodning afzalligini uyg'onish davrining buyuk rassomlaridan Leonardo da Vinchi, Albert Dyrilar ham o'z asarlarida ta'kidlab o'tishgan.

Naturani kuzatish orqali o'quvchining xotirasi mustahkamlanadi. Xuddi shu metoddan "Naqsh" chizish, "Manzara" mavzusida rasm chizish kabi mavzularda ham foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'qituvchi tomonidan doskada chizilgan kvadrat ichida naqsh ketma-ketlik orqali o'quvchiga tushuntirilib boriladi. Shundan so'ng o'qituvchi o'zi chizgan naqshni o'chirib, o'quvchini mustaqil chizishga undaydi. Buning uchun o'quvchi diqqatini bir nuqtaga jamlab, doskaga chizilgan naqshni diqqat bilan kuzatsagina chiza olishi mumkin. Xuddi shunday xotiradan "Natyurmort chizish" mavzusida ham o'qituvchi tomonidan qo'yilgan natyurmort diqqat bilan kuzatiladi, proporsiyasiga, joylashuviga, ranglariga e'tibor berilgach o'qituvchi naturaning ustini yopib qo'yadi va o'quvchi uni xotiradan chizishi kerak bo'ladi. O'quvchi qanchalik ko'p natura bilan ishlasa, u nafaqat tasviriy san'at darslarida balki chizmachilik, matematika, botanika, geografiya va uning tarmog'i kartografiya fanlarini ham o'zlashtirib biladi.

Men darslarimda sayohat darslarini ham uyuştiraman. Ayniqsa tabiat manzaralarini chizish mavzulari "Qish", "Bahor", "Kuz" fasllarini tasvirlashda o'quvchilar tabiat qo'ynida 5-10 daqiqa sayr qilsa u ko'rgan narsasini o'zining tasavvuri doirasida tasvirlay oladi. Tasvirlanishi qiyin bo'lган obrazlarini chizishda o'quvchiga o'qituvchi yordam beradi. Masalan kompozitsiya vositalardan biri format hisoblanadi. Uning 3 ta ko'rinishi mayjud: yotiq holati (gorizontal), tik holati (vertikal) va kvadrat shakkiali bo'ladi. O'quvchi bu usuldan foydalansa, uning ko'rish va kuzatuvchanlik qobiliyati rivojlanadi. Uning berilgan naturani to'g'ri qog'ozga tushirishi oson bo'lib oldingi va orqa planda turgan buyumlarning joylashuviga e'tiborini kuchaytiradi. O'quvchi sayr davomida qanchalik diqqat bilan ko'p vaqt kuzatsa, shuncha undagi yashirin qobiliyatlar shakllanadi. Va uning tasviriy san'at faniga bo'lган qiziqishi yanada ortadi. O'quvchini mustaqil ishlashga o'rgatish lozim. O'qituvchining chizib berishi, yoki doskada chizilgan rasmni ko'chirib olishi bilan u rasm chizishni o'rganmaydi va qiziqmaydi. Shunday ekan ko'proq o'quvchilarimizning kuzatuvchanlik, izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishimiz kerak. O'quvchini qiziqtirish uchun o'qituvchi har darsda yangi ma'lumotlar, qiziqarli metodlardan foydalansa, o'quvchining o'sha fanga bo'lган ishtiyoqi oshadi va ko'proq o'z ustida ishlashga harakat qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahim Hasanov. "Tasviriy san'at asoslari".
2. Tasviriy san'at. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.
3. G.V. Beda."Osnovi izobrazitelnoy gramoti". Moskva 1990 y.
4. N.N.Rostovsev. "Metodika prepodovaniya izobrazitelnogo iskustva v shkole". Moskva 1980.



## ЭВРИСТИК ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА ЭВРИСТИК ЎҚИТИШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ.

*Атаканов Азамжон Турсунович  
Наманган вилояти Чортот тумани  
40-умумий ўрта таълим мактабининг  
Тасвирий санъат ва чизмачилик фани ўқитувчиси.  
Телефон: +998 99 060 65 62*

**Аннотация:** Қўйиги ушбу илмий мақолада эвристик ўқитиш технологияси ва эвристик ўқитишнинг йўналишлари ҳақида қисқача малумот беришга ҳаракат қилинган.

**Калит сўзлар:** Эвристик, Суқрот, конструкциялаш, “Билмаслик”, қидираман, топаман.

Эвристик ўқитишнинг асосий моҳияти янгиликни доимо очишга ҳаракат қилиш демакдир. Эвристик юононча – қидираман, топаман, очаман деган маъноларни англатади.

Эвристика ўқитишнинг: 1. Ўқитиш шакли – эвристик сұхбат. Бунда ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида масала моҳиятини тушуниш ва бир фикрга келиш мақсадида савол ва жавоблар уюштирилади.

2. Ўқитиш методи. Ижодий ишлаш жараёнида ўқитувчи ўқувчига ишюзасидан мақсадли ғоялар, фикр чалғиганда түғри йўл кўрсатиб, вақти-вақти билан ақлий хужум уюштириб туради. Масалага ойдинлик киритиш йўлида эвристик вазият яратиб беради.

3. Берилган масаланинг технологик жараёни. Уни ўқувчининг ўзи белгилайди. Ижодий маҳсулотни рўёбга чиқаришдаги якуний натижаси ўқувчининг танлаган технологиясига боғлиқ бўлади. Танланган йўли самара бермаса, ўқитувчи ўз вақтида ўқувчига ёрдам кўрсатади.

Ўқувчининг ўзини-ўзи ижодий томондан рўёбга чиқариши эвристик ўқитишнинг энг юқори масаласи ҳисобланади.

Инновацион технологиялар орасидаги эвристик ўқитиш технологик шакли деярли Суқротнинг савол ва фикр юритиш методига суюнган. Маълумки, Суқрот ўзининг шогирдларига аввал, умумий йўналтирувчи савол берган ва жавобини олгач, аниқлаштирувчи савол берган ва ҳақиқатни аниқламагунча, унга жуда яқин савол бераверган.

Эвристик ўқитишдаги вазият ўқитишнинг калит элементи ҳисобланади. Бундай вазият ўқувчининг билмаслигидан уни фаоллаштиради, унинг мақсади ўқувчи томонидан шахсий ғоянинг туғилишини, гипотезалар, схемалар тузишга йўллайди.

Эвристик ўқитишда таълим натижасини айтиб бўлмайди. Ҳар бир ўқувчидан турли жавобларни олиш мумкин.

Эвристик ўқитишда ўқувчи олдинги олган билимини ўзлаштиради, кейин уни ижодий ўзлаштириш орқали ўзининг лойихасида қўллайди. Бу ерда олдинги билимларни ўрганиш орқали келажакка интилиш шиори амал қиласди.

Эвристик ўқитиш эркин ривожланиш мактабига асосланган бўлиб, унинг назарияси эвристик дидактика ҳисобланади.

Эвристик ўқитишнинг мазмуни ва мақсади ўқувчилар томонидан ўзининг мустақил фикрини лойихалаш (конструкциялаш) мақсад қилиб олинадиган, таълимнинг мақсади ва мазмуни ҳамда уни ташкил қилиш жараёни, ташхис қўйиш ва тушуниб этиш эвристик таълим ва ўқиш ҳисобланади.

Эвристик ўқитишнинг принциплари маълум педагогик шароитга мослаштириб ўқитиш бўлиб, унда ўқитишда ўқитувчи ва ўқувчини олдиндан натижаси маълум бўлмаган муоммони ечишга унрайди.


Эвристик ўқитиш нафакат ўқувчиларни балки ўқитувчиларни ҳам ривожланишга чорлайди, чунки ўқитувчиларга ўкув жараёнида ҳақиқатни “Билмаслик” вазиятини ташкил қилишга түғри келади.

Ўқувчи ўзининг машғулотлари режасини тузади, ўзининг шахсий қарашларини асосий масалага қаратади. Масалан, деталга ўлчамларини қўйишда унинг шаклини, геометрик образларни, уни тайёрлаш жараёнларни ўрганишга ҳаракат қиласди. Деталга ишлов беришдаги жараён ҳақида ўзининг шахсий фикрини, деталнинг геометрияси, уни яхшилаш ҳақидаги изланишлар, техник ва технологик конструкциялаш, дизайн кабилар устида



бош қотиради. Натижада ўқувчилар ўзлари ўрганаётган соҳа ҳақида шахсий индивидуал режаларини тузишади.

Эвристик таълим технологияси термини кластерланади.



### 1. Эвристик ўқитишининг йўналишилари.

Эвристик ўқитишин баъзида ижодий фаолият билан боғлашади. Лекин унинг асосий учта йўналиши мавжуд: 1. Эвристик фаолият ўзида ижодий таълимий маҳсулот етиштириш жараёнларини камраб олади.

2. Эвристик фаолиятни ташкил қилувчи жараёнлари ижод қилишдаги энг зарурый жараён ҳисобланади. 3. Эвристик фаолиятда ташкилий, методологик, психологик ва бошқа жараёнлар ижодий ва билиш фаолиятини таъминлайди. Эвристик ўқитишида унинг асосий мақсади ўқувчининг ўз-ўзини ижодий таъминлаш ҳисобланади. Бу жараён қуидагича амалга оширилади. Ўқувчи лойихалаш учун вазифа олади. Аммо унга вазифа ҳақида тайёр билим берилмайди. Ўқувчи вазифани бажариш учун турли қўринишдаги лойихалар, гипотезалар тузади. Кейин ўқитувчи билан вазифанинг аслига солиштирилади. Аслининг жавоби ишланмаси билан ўқувчининг лойиҳаси муҳокама қилиш йўли билан тўғри бажарилган лойиҳа аниқланади. Натижада ўқувчи ўзининг фаолият имкониятини қайта кўриб чиқади ва унинг шахсий қарашида ўзгариш рўй беради. Бу ўзгаришлар ўқувчининг сезгисида, билимида, иқтидорида, тажрибаси кабиларда намоён бўлади. Агар ўқувчи муҳокама натижасидан қониқмаган бўлса, у ҳаммасини қайта ишлаб чиқади, токи қониқарли натижага эришмагунча.

Эвристик ўқитиши очиқ вазифа асосига қурилади. Барча ўрганилаётган мавзу элементлари очиқ шаклдаги вазифада ифодаланиши мумкин. Масалан, валда айланма ҳаракат даврида втулка тешиги (ҳамда валнинг ўзи ҳам) емирилиб кетишини олдини оладиган мослама лойиҳалансин. Ёки машина ва механизмдаги бирор детал қўпол ҳамда оғир қилиб ишланган бўлиб, у детал иш жараёнида машина иш унумини пасайишига сабаб бўлаётган бўлса, уни дизайн асосида қайта лойиҳалансин каби масалаларнинг ечимини лойиҳалашда ўқувчи ўз режасини тузуб чиқади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки эвристик ўқитишида тайёр билимларни ўзлаштириш даражасини эмас, уларга ўқувчининг қанчалик ижодий ёндошганлиги назорат қилиш керак. Ўқувчининг шахсий сифатини ривожланиши, унинг ўрганаётган соҳаси бўйича ижодий ютуқлари ҳамда таълим стандартларидан қанчалик олға ўтиб бораётганлиги текширилиб, унга баҳо бериш керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Т., “Адабиёт жамъармаси”, 2006.
2. Сайидахмедов Н.С., Очилов А. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси –Т.: РТМ, 1999.
3. М.Б.Шах, Б.Рана. Энгинееринг Драинг, Индия бй Саи Принт-О-Па Пвт.Лтд, Индия, 2007, 2009.
4. Қодиров К.Б. Табақалаштирилган таълимда психологик-педагогик ташхис. – Тошкент: ЎзПФТИ. 2005.

**TADQIQOT.UZ  
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 18-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(14-қисм)**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 30.07.2020

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000